

## Boshlang‘Ich Sinflarda O‘Qish Darslarida O‘Qish Malakalarining Sifatlarini Shakllantirish

*Xo‘jamberdieva Fotima Ne‘matovna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich sinflarda yaxshi o‘qish malakalarining sifatlarini shakllantirish haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** nutq, nutqiy rivojlanish, to‘g‘ri o‘qish, tez o‘qish, ongli o‘qish, ifodali o‘qish.

Ta’limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo‘llarini o‘rganish, ularni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ona tilini o‘qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o‘quvchilar faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.

O‘quvchilar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo‘lishlari o‘z fikrini ifodalashga, zarur bo‘lgan so‘z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarini tanlay va qo‘llay bilishlari davr talabidir. Ona tilidan dars beruvchi o‘qituvchi haqiqiy ijodkor bo‘lishi, ta’lim jarayonida o‘quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo‘naltirilgan faoliyatni rag‘batlantirishi, o‘z fikri, g‘oyalarini o‘zgalarga yetkaza bilish, ko‘nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Bu narsa boshlang‘ich sinflardanoq shakllantirilishi lozim.

Yaxshi o‘qish malakasining sifatlari deganda tez, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qishni tushunamiz. O‘qish malakasini takomillashtirish deganda esa o‘quvchilarda yaxshi o‘qish malakasini shakllantirish tushuniladi. O‘qish sifatlari bir – biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ongli o‘qish asosiy hisoblanadi; o‘quvchi tez o‘qisa-yu anglab o‘qimasa, o‘zi ham boshqalar ham matn mazmunini tushunmaydi; to‘g‘ri o‘qish ham ongli o‘qishga xizmat qiladi; to‘g‘ri, tez va ongli o‘qish ifodali o‘qishning asosi hisoblanadi<sup>2</sup>.

Yaxshi o‘qish malakasini egallash mifikidan barcha predmetlardan muvaffaqiyatli o‘qishning muhim sharti hisoblanadi. O‘qish faoliyatining asosiy turi bo‘lib, o‘quvchilarning g‘oyaviy - siyosiy, aqliy, estetik va nutq jihatidan rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bular o‘qish malakasini o‘stirish va takomillashtirish ustida muntazam va maqsadga muvofiq ishslash zarurligini ta`kidlaydi.

O‘qish malakasi murakkab malaka bo‘lib, uni shakllantirish uzoq vaqtini talab etadi. O‘qish malakasini shakllantirish jarayonini uch bosqichga bo‘ladi: analistik, sintetik va aftomatlashgan bosqich. Analistik bosqich savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi: bunga so‘zni bo‘g‘in - harf tomoni ishlatilishini shuningdek, o‘qishning to‘g‘ri va ongli bo‘lishini hisobga oladi. O‘quvchilarning o‘qish tezligini iloji boricha, bir xillikka keltirishdan iborat. Bunga, asosan, matnni ovoz chiqarib o‘qishni mashq qilish bilan erishiladi.

O‘qish tezligi ortishiga, avvalo, o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishi, hoxishi va kitob o‘qishni bola 1-sinf oxiridayoq tez o‘qiy oladi. Tez o‘qish matn ustida ishslash yuzasidan o‘quvchilar bajaradigan vazifaning harakteriga ham bog‘liq. Beriladigan vazifa o‘quvchini matn mazmunini ongli idrok etish maqsadida uni qayta o‘qishga majbur etishi, zarur bo‘lganda tahlil qilish va bo‘g‘inlab o‘qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so‘zni ko‘rish orqali sidirg‘a o‘qish harakterlidir: bunda so‘zni

<sup>1</sup> Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

<sup>2</sup> K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, 2009.50-bet.



ko‘rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so‘z ma`nosini idrok qilish bilan birga amalgalashadi. O‘quvchilar sintetik o‘qishga 3- sinfda o‘tadilar. Bundan keyingi yillarda o‘qish avtomatlasha boradi.

O‘qish darslarida asar ustida ishlashtirishni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish yaxshi o‘qish malakalarini takomillashtirishga yo‘naltirilsin.

Tez o‘qish odatiy tezlikda o‘qish demakdir. odatiy tezlikda matn mazmunini tushunishini, o‘qishning ongliligini ta`minlaydi. Juda tez o‘qish yoki o‘ta sekin o‘qish matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. O‘qish tezligi bir daqiqada o‘qiladigan so‘zlar soni bilan belgilanadi. Mavjud dasturga asosan, o‘qish tezligi 1- sinf oxirida daqiqasiga 30-40 so‘zga; 3- sinf oxirida 70-90 so‘zga to‘g‘ri keladi. O‘qish tezligi uch yil davomida to‘g‘ri va ongli o‘qish bilan bog‘liq holda asta ortib boradi. O‘qish tezligini tekshirganda o‘qituvchi o‘qiladigan manbaningning xarakterini, ya`ni go‘yaviy tematik murakkalligini, so‘z va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay daraja, masalan, o‘z mulohazasining to‘g‘riligini tasdiqlash maqsadida matndan material tanlash, qayta o‘qilishga tayyorlanish, so‘z bilan tasvirlash kabi vazifalarni bajarish uchun o‘quvchilar qayta o‘qishga majbur bo‘ladilar, bu o‘qish tezligini oshiradi. Bularidan tashqari, dialogni ikki o‘quvchiga o‘qitish, matn qismlarini navbatli bilan o‘qitishdan foydalanish ham o‘qish tezligini oshiradi<sup>3</sup>.

O‘qish darsida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni shunday rejalashtirish kerakki, dars jarayonida deyarli barcha o‘quvchi xilma –xil vazifarni bajarishi bilan ovoz chiqarib o‘qisin. O‘quvchilarning ichida o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat berish lozim.

Ongli o‘qish yaxshi o‘qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o‘qish o‘qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g‘oyaviy yo‘nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o‘qish shuningdek, asarda tasvirlangan voqeа- hodisalarga o‘z munosabatini ifodalay olishidir. Ongli o‘qish o‘z navbatida, o‘quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so‘zning leksik ma`nosini, gapda so‘zlarning leksik ma`nosini, o‘zaro bog‘lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog‘liq. Hozirda ongli o‘qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma`noda; birinchidan: o‘qish jarayonini egallahsha nisbatan, o‘qish sifatlaridan biri ma`nosida qo‘llaniladi.

Matnni ongli o‘qish uchun o‘quvchilar o‘qish texnikasini egallagan bo‘lishlari va o‘qish jarayonida qiyalmasligi,odatiy tezlikda o‘qishi talab qilinadi. Ular matnni ongli o‘qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Shunday qilib, ongli o‘qishning muhim sharti asarning qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O‘qituvchi ongli o‘qishni matnni ifodali o‘qishga va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to‘g‘riligiga qarab baholaydi. Ongli o‘qish va ifodali o‘qish bir - birini taqozo qiladi, ammo bir - biriga aynan o‘xshamaydi.

Ifodali o‘qish intonatsiya yordamida asarning g‘oyasi va jozibasini to‘g‘ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay olishdir. Ifodali o‘qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotisionalligini ohang orqali o‘quvchilarga ko‘rgazmali qilib ko‘rsatishdir. Ifodali o‘qishning asosiy sharti o‘qiladigan asar g‘oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdan iborat.

O‘quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan ibora

1. Nutq jarayonida nafas olishdan foydalana bilish (nafasni taqsimlay bilish).
2. Har bir tovushning to‘g‘ri artikulyatsiyasi va aniq diksyu malakasini egallah.
3. Adabiy talaffuz normalarini egallah<sup>4</sup>.

Bu shartlar faqat ifodali o‘qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya`ni hikoya qilishga ham taalluqlidir: o‘quvchining har qanday og‘zaki hikoyasi ifodali bo‘lishi zarur.

<sup>3</sup> K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2009.51-bet.

<sup>4</sup> A.G‘ulomov, B.Qobilov. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. Toshkent.”O‘qituvchi”, 1995.26-bet.



Ifodali o'qishning asosiy vositalarridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland - pastlik, uzun - qisqalik, tezlik, yoqimli- yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qishga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matnni tushunish, avtor hikoya qilgan voqealarga o'z munosabati asosiy vazifa hisoblanadi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yaxshi o'qish malakasining sifatlari yani tez, to'g'ri, ongli, ifodali o'qishga o'rgatishda she'riy asarlarning ham ahamiyati katta.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli // O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutq // Xalq so'zi. – Toshkent, 2019 yil 22 oktyabr. – № 218. – B. 1-4.
2. Azimova I.A. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi.//“Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: O'TAU, 2019, 20-aprel. 219-bet.
3. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.
4. Buyurtma. "5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda kognitiv qobiliyatlarni yaxshilash", Moskva - Voronej, 1999.
5. Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova. Smart darslik g'oyasi muallifi: Pedagogika fanlari nomzodi Dadajon Sayfurov. Alifbe 1-sinf [Matn] : darslik.Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

